

YANGI BARPO QILINGAN O'RMONLARDA LEPIDOPTERA TURKUMI
VAKILLARI BOEKOLOGIYASI VA SAMARALI ENTOMOFAG TURLARINI
ANIQLASH

Gozibekov Abdumannon Sobirovich

Toshkent davlat agrar universiteti

Qishloq xo'jaligi bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada hozirda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani va Jizzax viloyati Zomin tumani o'rmon xo'jaliklarida yangi barpo qilingan o'rmon daraxtlarida uchraydigan Lepidoptera turkumi vakillari va ularning parazit entomofaglarini tur tarkibini aniqlash va uchrash darajalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Lepidoptera, Eribidae, bioekologiya, entomofag, uchrash darajasi, sistematika.*

O'zbekiston hududlaridagi o'rmon biosenozlarida uchraydigan parazit va yirtqich entomofaglarini aniqlash hamda ularni sistematik tahlil qilish, ularning biologik xususiyatlarini o'rganish, o'rmon xo'jaligidagi zararkunandalarga qarshi kurash olib borishni jadallashtirishning ahamiyati hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda o'rmon biosenozida *Lymantriidae* oilasi zararkunandalarning 100 dan ortiq parazit va yirtqichlari bor [4]

Tadqiqotlarimizda Lepidoptera turkumining *Eribidae* oilasi vakillarini parazit entomofag turlarini sistematik tahlili bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Tadqiqotlarga ko'ra *Lymantriinae* oilasining parazit entomofaglari, parazit-xo'jayin munosabatlari o'rganildi.

So'ngi yillarda respublikamizda o'rmon biosenozlarida zararkunandalardan himoya qilishda ko'p xollarda kimyoviy kurash olib borilmoqda. Chunki o'rmon biosenozida o'nga yaqin zararkunandalar uchrab mavsumda katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Birvaqtning o'zida daraxtlarga toq ipak qurti, turkiston zarkapalagi, turkiston orgiyasi, tol kapalagi uchraydi. Ushbu zararkunandalarga qarshi biologik kurash olib borish uchun foydali entomofag turlarini biolaboratoriyada ko'paytirish yo'lga qo'yilmagan.

O'rmon biosenozida *Lymantriinae* oila vakillari birqancha samarali parazit entomofaglari tabiatda uchrab ushbu zararkunandani ma'lum bir darajada sonini boshqarib turadi. Lekin ushbu zararkunandani parazit entomofag turlari to'liq xisobga olish va biolaboratoriyada ko'paytirish bo'yicha ilmiy izlanishlar to'liq olib borilmagan.

Bizning olib borgan tadqiqotlarimiz aynan o'rmon biosenozida uchraydigan to'lqinsimonlar (*Lymantriinae*) oilasiga mansub zararkunandalarni sonini boshqarishga qaratilgan bo'lib toq ipak qurti hamda turkiston zarkapalagining entomofaglarini sistematik tahlil qilish hamda o'rganishdan iborat bo'ldi.

Unga ko'ra o'rmon biosenozida *Lymanriinae* oilasi vakillari tuxumi va qurtlariga parazitlik qiluvchi entomofaglarining tur tarkiblari aniqlandi. Mamlakatimiz o'rmon xo'jaliklarida *Lymanriinae* oilasini asosiy iqtisodiy zarari katta bo'lgan ikkita *Lymantria dispar* L. va *Euproctis karghalica* M turi kIIIp uchrashi yuqoridagi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lgan edi. Lekin ushbu zararkunandani tuxum va qurtlariga kushandalik qiluvchi 5 ta oilaga mansub bo'lgan 15 ta parazit entomofag turlari uchrashi aniqlandi.

I–jadval

O'rmon biosenozida *Eribidae* (*Lymantriinae*) oilasi vakillarining hududlar bo'yicha entomofaglarini uchrash darajasi.

(Toshkent va Jizzax viloyatlari o'rmon xo'jaliklari 2021-2023 yy).

Parazit turlari	Populyatsiyalarning geografik joylashuvi (Hududlar kesimida)	
	Bo'stonliq	Zomin
HYMENOPTERA		
<i>Braconidae</i>		
<i>Cotesia melanoscela</i> RATZ	-	+
<i>Meteorus monachae</i> Tobias	+	-
<i>Bracon crassungula</i>	+	+
<i>Apanteles melanoscelus</i>	+	+
<i>Ichneumonidae</i>		
<i>Pimpla turionellae</i>	+	-
<i>Pimpla instigator</i>	+	-
<i>Apechtis compunctor</i>	+	+
<i>Apechtis capulifera</i>	-	-
<i>Theronia atalantae</i>	+	-
<i>Stilpnus tenuipes</i>	-	-
<i>Lymantrichneumon disparis</i>	+	-
<i>Trichogrammatidae</i>		
<i>Trichogramma chilonis</i>	+	+
<i>Trichogramma pintoi</i>	-	-
<i>Encyrtidae</i>		
<i>Ooencyrtus kuvanae</i> L.	+	+
<i>Chalcididae</i>		
<i>Brachymeria intermedia</i>	+	+

Izoh: Uchrash darajalari belgilar bo'yicha: uchraydi (+), uchramasligi (-)

Ushbu parazit entomofag oilalaridan *Trichogrammatidae*, *Braconidae*, *Ichneumonidae*, *Encyrtidae*, *Eupelmidae* va *Chalcididae* oilalarining *Trichogramma chilonis*, *Trichogramma pintoi*, *Bracon crassungula*, *Cotesia melanoscela*, *Apanteles melanoscelus*, *Pimpla turionellae*, *Pimpla instigator*, *Apechtis compunctor*, *Apechtis capulifera*, *Theronia atalantae*, *Stilpnus tenuipes*, *Lymantrichneumon disparis*, *Brachymeria intermedia*, *Ooencyrtus kuvanae* L. turlari ekanligi ma'lum bo'ldi. (I-jadval).

Аннотация: В статье представлены видовой состав и уровень встречи представителей отряд *Lepidoptera* и их паразитических энтомофагов, обнаруженных во вновь посаженных лесных деревьях в лесхозах Бостонликского района Ташкентской области и Зоминского района Джизакской области.

Ключевые слова: Чешуекрылые, биоэкология, энтомофагия, встречаемость, систематика.

Abstract: The article presents the species composition and level of occurrence of representatives of the family *Lepidoptera* and their parasitic entomophages found in newly planted forest trees in the forestry enterprises of the Bostonlik district of the Tashkent region and the Zomin district of the Jizzakh region.

Key words: *Lepidoptera*, bioecology, entomophagy, occurrence level, systematics.

Фойдаланилган адабиётлар тўплами:

1. Невский В.П. Итоги работ по борьбе с вредителями плодовых культур. Сб.» Вредители и болезни хлопчатника и других культур и борьба с ними». 1988 г. Ташкент: с. 59-86
2. Сулаймонов Б.А., Кимсанбоев Х.Х., Анорбаев А.Р., Жумаев Р.А., Сабиров С.К., Собиров Б.Б., Гозибеков А.С., Балкибоев Ш.Ш., Ўрмон биоценозида фитофаг турлари ва уларни бошқариш 210 б. 2016 й.
3. Яхонтов В.В. - Вредители сельскохозяйственных растений и продуктов Средней Азии и борьба с ними. - Ташкент, Госиздат Уз ССР, 1953.- 663 с.
4. Яхонтов В.В. «Экология насекомых» Изд. 2 издательство «Высшая школа» М : 1969 стр. 484.
5. Abbots W.S. A method of computing the effectiveness of insecticide, 1925.- V.18. - №3. - P.265-267.